

6-sinf ona tili I chorak 1-BSB

Topshiriqli diktant (25 ball)

BSB bo'yicha o'quvchiga qo'yiladigan talablar:

- Diktantda berilgan matnni imlo qoidalari asosida yozishi;
- Matnni tinish belgilariga rioya qilgan holda yozishi;
- Diktant matnini husnixat asosida yoza olishi;
- Matn asosida berilgan topshiriqlarni to'g'ri bajara olishi talab etiladi.

Diktant matni namunasi:

MEHR

Har kuni saharda, hali quyosh chiqmasdan sayr qilish odatim bor. Ko'chaga chiqaman, anhor labida aylanaman, keyin bog'ga o'taman. **Shunday** tonglarning birida bog'da aylanib yurgan edim, katta sadaning tagida o'zimga tanish chol – bog' qorovulini ko'rib qoldim. U supurgiga **iyagini** tirab, xomush turardi. Yaqinroq bordim. Allanarsa jonholatda **chirqillard**. Bir mahal chol supurgisini tashladi-yu, sadaning orqasidagi ekinning ichini cho'kkalab olib tita boshladi.

Qancha vaqt titkiladi, bilmadim, **o'rnidan** turganda qo'lida qush bolasi bor edi. Jonivor kichkina tumshuqchasini katta-katta ochib chirqillard. Chol allanarsa deb qushchani erkalagan bo'ldi, keyin sadaga qaradi. Men ham qaradim. Sada ning odam bo'yi keladigan **butog'ida** qandaydir qushning ini bor edi. Chol biroz o'ylanib turgach, qo'lini cho'zib uni iniga qo'ydi.

(O'.Umarbekov. 111 so'z)

I. Topshiriqli diktant 15 ball

Diktantni baholash mezonlari		1 ta	2 ta	3-4 ta	5-7
Imlo xatolari	10 ball	9-10 ball	8 ball	7-6 ball	5-3 ball
Tinish belgilari	3 ball	3 ball	2 ball	1ball	
Husnixat	2 ball				
Husnixat aniq va ravon, tushunarli bo'lsa	2				
Husnixat biroz noaniq, harflar qiyshaygan bo'lsa, ravon o'qish biroz qiyin bo'lsa	1 ball				

Diktant jami:	15 ball				
---------------	--------------------	--	--	--	--

II Topshiriqlarni baholash mezoni (10 ball)

1. Diktant uchun tanlangan matn matnning qaysi turiga oid? (1 ball)

2. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlar tarkibini tahlil qiling. (3 ball)

1) *shunday*

2) *iyagi*

3) *o'rnidan*

3. *Qancha vaqt titkiladi, bilmadim, o'rnidan turganda qo'lida qush bolasi bor edi. Jonivor kichkina tumshuqchasini katta-katta ochib chirqillardi.*

Ushbu gapda nechta sifat turkumiga oid so'z ishtirok etgan? (2 ball)

4. *Har kuni saharda, hali quyosh chiqmasdan sayr qilish odatim bor. Ko'chaga chiqaman, anhor labida aylanaman, keyin bog'ga o'taman.*

Ushbu gapni morfologik tahlil qiling. (2 ball)

Ot	sifat	son	olmosh	ravish	fe'l

5. Matndan sodda yasama so'zlarni toping.(2 ball)